

SHARTNOMA № TS- 243

Pullik xizmatlarni ko'rsatish haqida

Toshkent sh.

"28" subab 2022 y.

Keyingi o'rinlarda "BUYURTMACHI" deb ataluvchi Quruvchi tashkiloti O'zO'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi «IT MED» MCHJ. keyinchalik "IJROCHI" deb ataluvchi, Ustav asosida faoliyat yurituvchi direktor V.b Xakimov Artur Bakirovich, boshqa tomondan, bundan keyin birgalikda va/yoki alohida "TARAFLAR" va/yoki "TARAF" deb nomlanuvchilar, ushbu "SHARTNOMA"ni quyidagilar haqida tuzdi:

1. SHARTNOMANING PREDMETI.

1.1. IJROCHI quyidagi ixtisoslashtirilgan axborot tizimlarini texnik qo'llab-quvvatlash bo'yicha xizmatlarni, bundan keyin XIZMATLAR deb yuritiladi, amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi:

- Elektron xujjat almashish;
- Poliklinika;
- Tug'ilish va o'limni elektron ro'yxatga olish;
- Yuqumli kasalliklar epidemiologik monitoringi;
- Qon xizmati;
- Pochta;
- Kadrlar resurslarini boshqarish;
- Muassasa pasport ma'lumotlari yagona tizimi;
- Xatlov.uz axborot tizimi;
- "TMEK" dasturiy majmuasi;
- Bemor.ssv.uz;
- Ssv.uz rasmiy sayti;
- "Narkologik kasallar hisobini yuritish" avtomatlashtirilgan axborot tizimi;
- "Psixonevrologik kasallar hisobini yuritish" avtomatlashtirilgan axborot tizimi;
- Koronavirus infeksiyasiga (COVID-19) qarshi emlash hisobini yuritish bo'yicha yagona axborot tizimi;
- Xizmat.ssv.local.

BUYURTMACHI ushbu SHARTNOMA shartlariga muvofiq ularni qabul qilish va to'lash majburiyatini oladi.

XIZMAT narxlari					
№	XIZMAT nomlanishi	O'lov birligi	Miqdor	Narxi, (QQS siz)	Umumiy summa (QQS siz)
Har oylik xizmatlar:					
1.	Ixtisoslashtirilgan axborot tizimlarini texnik qo'llab-quvvatlash	Oy	3	680.000 so'm	2 040 000,00
Jami:					Summa ikki million qirq ming so'm 00 tiyin

2. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.**2.1. IJROCHIning majburiyatlari:**

2.1.1. XIZMATLARni, 1-ilovaga muvofiq mas'uliyat chegaralarini taqsimlash doirasida, BUYURTMACHI o'zining texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib, SHARTNOMAning 3.2, 2.1.3-bandlari bajargandan so'ng 2-ilovasi (IJROCHIGA texnik talablar) shartlariga muvofiq bajarish.

2.1.2. SHARTNOMAning 1-ilovasiga muvofiq jihozlarning nosozligi va unga tegishli bo'lmagan aloqa kanallarining yetishmovchiligi uchun javobgar emas.

2.1.3. IJROCHI, pudratchi bilan alohida SHARTNOMA tuzish sharti bilan BUYURTMACHIning apparat va dasturiy ta'minotini texnik qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ixtisoslashgan dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va uni keyinchalik boshqarish va qo'llab-quvvatlash uchun outsorsing xizmatlarini ko'rsatishi mumkin.

2.2. BUYURTMACHIning majburiyatlari:

2.2.1. Taqdim etilgan XIZMATLAR uchun o'z vaqtida va to'liq to'lovni amalga oshirish.

2.2.2. 1 (bir) kun ichida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining korporativ tarmog'iga (elektron pochta xizmati va axborot tizimlari) kirish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning kadrlar almashinuvi to'g'risida ma'lumot berish.

2.2.3. 2-ilovada ko'rsatilgan barcha texnik talablarga rioya qilish.

2.2.4. IJROCHIning ish vaqtining istalgan vaqtida uning faoliyatiga aralashmasdan, IJROCHI tomonidan taqdim etilayotgan XIZMATLAR sifatini tekshirish huquqiga ega.

3. SHARTNOMA NARXI, TO'LOVNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI.

3.1. Oylik to'lov 680.000 so'm (olti yuz sakson ming so'm 00 tiyin)ni, SHARTNOMAning umumiy summasi 2 040 000 so'm (ikki million qirq ming so'm 00 tiyin)ni tashkil etadi, ushbu summa SHARTNOMA davrida texnik ko'mak uchun umumiy xarajatlardir.

- 3.2. SHARTNOMA bo'yicha XIZMATLAR uchun to'lov ushbu SHARTNOMA imzolangan kundan boshlab 5 (besh) bank ish kunidan kechiktirmay ko'rsatilgan xizmatlar uchun oylik abonent to'lovining oldindan 30 foizini to'lash va uni O'zbekiston Respublikasining vakolatli organlarida ro'yxatdan o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Obuna to'lovining keyingi har oylik to'lovi XIZMATLAR taqdim etilgan oyning 30-kunidan kechiktirmay amalga oshirilishi kerak.
- 3.3. To'lov shartlari buzilgan taqdirda IJROCHI, BUYURTMACHIning korporativ tarmoqdan foydalanishini vaqtincha blokirovka qilishga yoki SHARTNOMAni bir tomonlama bekor qilishga haqlidir.
- 3.4. BUYURTMACHI qarzdorlikni yopib, oylik abonent to'lovining 20 foizini to'laganidan so'ng, tarmoqdan qayta foydalanishiga ruxsat beriladi.

4. SHARTLAR VA MUDDATLAR.

- 4.1. IJROCHI har oyda BUYURTMACHIGA bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomani va to'liq kalendar oyi davomida ko'rsatilgan XIZMATLAR uchun hisob-fakturani taqdim etadi. Agar bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma va hisob-fakturani yuborgan paytdan boshlab 5 (besh) bank kuni mobaynida BUYURTMACHI o'z e'tirozlarini yozma ravishda taqdim qilmasa, BUYURTMACHI bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomada ko'rsatilgan xizmatlarga rozi deb hisoblanadi. Belgilangan muddat tugagandan so'ng, BUYURTMACHIdan IJROCHI tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va sifatiga oid da'volar qabul qilinmaydi. BUYURTMACHI ushbu hujjatlar bilan tanishishi shart (bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomani, ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-faktura) va ularni keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan imzolashi shart. BUYURTMACHI tomonidan belgilangan muddatda bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomani va hisob-fakturani tanishmaslik yoki imzolamaslik uni xizmatlarni o'z vaqtida to'lashi uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.
- 4.2. Hisob-faktura IJROCHI tomonidan oyning oxirgi sanasida hisob-faktura yuborish veb-saytida rasmiylashtiriladi. To'lov sanasi IJROCHIning hisob-kitob hisob-varag'iga mablag' tushgan sana hisoblanadi. SHARTNOMA bo'yicha BUYURTMACHIning hisob-varaqlarini vaqtincha blokirovka qilish davrida pudratchi ushbu SHARTNOMAning amal qilish muddati tugashiga qadar obuna to'lovini olishga haqlidir.

5. TARAFLARNING JAVOGBARLIGI.

- 5.1. BUYURTMACHI tomonidan SHARTNOMAning 2.1 bandida ko'rsatilgan to'lovlar o'z vaqtida to'lamaganligi yoki hisobvaraqlar va bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomalarni belgilangan muddatda tasdiqlamaganda, BUYURTMACHI tomonidan ushbu SHARTNOMA bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarmaganligi uchun IJROCHI BUYURTMACHIning mavjud qarzlari to'languniga qadar qayd yozuvlarini vaqtincha o'chirish xuquqini o'zida saqlab qoladi.
- 5.2. Ushbu SHARTNOMAda nazarda tutilgan xizmatlarni bajarish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, IJROCHI BUYURTMACHIGA kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash SHARTNOMA majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.
- 5.3. BUYURTMACHI to'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida ishlar, xizmatlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun BUYURTMACHI IJROCHIGA o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.
- Bajarilgan ishlar, xizmatlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun BUYURTMACHI IJROCHIGA o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.
- 5.4. SHARTNOMAda ko'rsatilgan ishlar, xizmatlar sifatsiz bajarilgan taqdirda BUYURTMACHI ishlarni sifatli bajarib berishni talab qilishga haqli. BUYURTMACHIning talabini olgan paytdan boshlab, agar taraflarning kelishuvida o'zga muddat belgilangan bo'lmasa, o'n besh kunlik muddat ichida ish va xizmatlarni sifatli bajarib berishi shart, undan buyon ish va xizmatlarni to'liq bajarib berilgunga qadar ularning haqini to'lashdan bosh tortishga, agar ish va xizmatlarning haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, belgilangan tartibda to'langan summalar qaytarilishini BUYURTMACHI talab qilishga haqli. Bajarilmagan ish, xizmatlar qiymatini qo'shgan holda, IJROCHIdan bajarilmagan ish va xizmatlarni qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqlidir.
- 5.5. TARAFLAR SHARTNOMA majburiyatlari xo'jalik yurituvchi sub'ekt mansabdor shaxsining aybi bilan bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan, uning tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektning pul mablag'lari va boshqa mol-mulki maqsadga nomuvofiq foydalanilganligi aniqlangan, to'lov intizomi buzilgan, xo'jalik yurituvchi sub'ekt bankrotlikka duchor qilingan yoki SHARTNOMA munosabatlari sohasida boshqa qoidabuzarliklar sodir etilgan taqdirda, xo'jalik yurituvchi sub'ektning mansabdor shaxsi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 45 va 48-moddalariga muvofiq fuqarolik-huquqiy javobgarlikka, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 175, 176-1, 176-2, 212 va 214-moddalariga muvofiq ma'muriy javobgarlikka, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 175, 181, 186, 205, 207 va 209-moddalariga muvofiq jinoyat javobgarlikka tortilishi mumkin.

6. NIZOLARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI.

- 6.1. Ushbu SHARTNOMAdan kelib chiqadigan barcha nizolar, shu jumladan uning tuzilishi, bajarilishi, bekor qilinishi, yaroqsizligi bilan bog'liq holda, TARAFLARning vakolatli vakillari o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.
- 6.2. Agar kelishuvga erishilmasa, ular kelib tushgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kun ichida yozma talabni ko'rib chiqish muddatini belgilash bilan nizolarni hal qilish bo'yicha dastlabki da'vo tartibiga rioya qilish sharti bilan Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga ko'rib chiqishga yuboriladi.

7. FORS-MAJOR.

- 7.1. Fors-major holatlari (yong'in, toshqin, zilzila, harbiy harakatlar, epidemiya) yuzaga kelganligi sababli TARAFLAR SHARTNOMA bo'yicha o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar.
- 7.2. Fors-major natijasida SHARTNOMA bo'yicha majburiyatlarni bajarish imkonsizligi yuzaga kelgan TARAF 3 (uch) ish kuni ichida vakolatli organ hujjatlari ilova qilingan holda, ushbu holatlarning paydo bo'lishi va bekor qilinishi to'g'risida boshqa tomonga xabar berishga majburdir.
- 7.3. Agar fors-major holatlari TARAFLARDAN birining 30 (o'ttiz) kundan ko'proq vaqt davomida o'z majburiyatlarini bajarishga to'sqinlik qiladigan bo'lsa, unda boshqa TARAF bitimni amal qilish muddati tugashidan oldin bekor qilishga haqlidir. Shu bilan birga, SHARTNOMANI muddatidan oldin bekor qilish sababli TARAFLAR tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash to'g'risidagi da'volar taqdim etilishi mumkin emas.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA SHARTNOMANI BEKOR QILISH TARTIBI.

- 8.1. SHARTNOMA amal qilish muddati 05.01.2022 yildan 31.12.2022 yilgacha. SHARTNOMA imzolanganidan keyin tomonlarda ro'yxatdan o'tgandan so'ng, byudjet tashkilotlarida esa O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida ro'yxatdan o'tganidan kuchga kiradi.
- 8.2. Agar SHARTNOMANI imzolash va BUYURTMACHIGA ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan kundan boshlab 20 kalendar kun o'tgan bo'lsa, SHARTNOMA imzolanmagan va IJROCHIGA qaytarilgan bo'lsa, IJROCHI SHARTNOMANI haqiqiy emas (tuzilmagan) deb hisoblash huquqini o'zida saqlab qoladi. Belgilangan muddat tugagandan so'ng imzolangan SHARTNOMA qaytarilgan taqdirda, IJROCHI SHARTNOMAVIY munosabatlarni yangilash huquqiga ega.
- 8.3. TARAFLAR tomonidan SHARTNOMANING bandlari bajarilmaganligi sababli, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qonunlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha SHARTNOMA bekor qilinishi mumkin.
- 8.4. Ikki TARAF ham kutilgan bekor qilish kunidan 10 (o'n) ish kun oldin boshqa tomonni yozma ravishda xabardor qilib, bitimni bir tomonlama bekor qilishga haqlidir.
- 8.5. TARAFLAR bank va pochta rekvizitlari o'zgarishi to'g'risida bir-biriga zudlik bilan xabar berish majburiyatini oladilar.

9. BOSHQA SHARTLAR.

- 9.1. TARAFLAR tomonidan SHARTNOMA imzolanganidan so'ng tuzilgan ilova, bayonnoma, qo'shimcha bitim, boshqa hujjatlar, agar ular tarafdarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan bo'lsa, faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilishi va ro'yxatdan o'tkazilishi sharti bilan amal qiladi va SHARTNOMANING ajralmas qismi hisoblanadi.
- 9.2. TARAFLAR ushbu bitim, unga qo'shimchalar va qo'shimcha SHARTNOMALAR, hisob-fakturalar va bajarilgan ishlar dalolatnomalari, shuningdek uni rasmiylashtirish, o'zgartirish yoki tugatish uchun tegishli bo'lgan boshqa hujjatlar bo'yicha belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan qo'l yozuvi va faksimil imzolarning, elektron raqamli imzolarning teng qonuniy kuchini tan olishadi.
- 9.3. SHARTNOMA bilan tartibga solinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.
- 9.4. XIZMATLAR hajmi o'zgarganda, shu jumladan yangi shaxsiy kompyuterlar, serverlar va ofis uskunalari ishga tushirilganda, TARAFLAR imzolagan SHARTNOMAGA qo'shimchalarga o'zgartirishlar kiritiladi yoki yangi qo'shimchalar yoki qo'shimcha SHARTNOMALAR tuziladi.
- 9.5. SHARTNOMA 2 (ikki) nusxada. Tomonlarning har biri uchun 1 (bitta) nusxada, davlat tilida tuzilgan, ikkala nusxasi ham bir xil qonuniy kuchga ega.

10. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI, BANK REKVIZITLARI VA IMZOLARI.

BUYURTMACHI

Manzil: *Yul'dorlar u. Nohiyalar xqda 61-41*
Tel: *41-94-3261*
STIR: *301086132* OKED:
IFR: *2540200030010001010*
Moliya Vazirligi G'aznachiligi
STIR: *00120915* MFO: *00014*
SHIV: *401422860332369094110054001*
Bank nomi: *M. B. Tashkent sh. F. B. XUM*



m.o'

IJROCHI

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash
vazirligi "IT-MED" MChJ

Manzil: Tashkent sh., Shayxontoxur tumani,
Navoi ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (99871) 2037071.
e-mail: itmed@ssv.uz
H/r: 20208000800957658001
STIR :305926021, OKED: 62020, MFO:00432
Bank nomi: "Uz sanoat qurilish bank" ATB
Yashnabod filiali



UzSanoatQurilishBank

Yangibozor tuman SEO va JSX bo'limi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi "IT-MED" masuliyati cheklangan jamiyati o'rtasida tuzilgan № TS 743 – sonli shartnomani huquqiy ekspirtizadan o'tkazish yuzasidan

XULOSA

2022 yil 31 yanvar

Yangibozor tumani

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi PQ-5168-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari to'g'risida"gi Nizomga asosan Yangibozor tumani SEO va JSX bo'limi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi "IT-MED" masuliyati cheklangan jamiyati o'rtasida 2022 - yil 28 yanvarda tuzilgan TS 743 – sonli shartnoma loyixasini o'rganib chiqib huquqiy ekspertizadan o'tkazdim.

2022 – yil 28 yanvardagi TS 743 - sonli shartnomasi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi "IT-MED" masuliyati cheklangan jamiyati tomonidan Tuman SEO va JSX bo'limiga axborot xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida tuzilgan. Shartnomaning umumiy summasi 2040000 (ikki million qirq ming) so'mni tashkil qilib, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 1998 yil 29 avgustdagi Qonunining 10, 20,21-moddalari talablari hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 367-369- moddalari asosida tuzilgan. Shartnomani imzolagan Yangibozor tuman SEO va JSX bo'limi boshlig'i X.S.Urazbayeva va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi "IT-MED" masuliyati cheklangan jamiyati direktori vazifasini vaqtincha bajaruvchi B.A.Xakimovga yuridik shaxs Nizomiga xamda chiqarilgan buyruqlarga asosan birinchi imzo chekish huquqi berilgan.

Shartnomani imzolashda shartnomalarini tuzishning erkinligi, taraflarning o'zaro manfaatdorligi, shartnoma intizomiga rioya etish, taraflarning o'zaro mulkiy javobgarligi prinsiplariga to'liq rioya qilingan va taraflarning huquqlari hamda majburiyatlari aniq ko'rsatib o'tilgan.

XULOSA QILINDI:

Yangibozor tuman SEO va JSX bo'limi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi "IT-MED" masuliyati cheklangan jamiyati o'rtasida 2022-yil 28 yanvar kuni tuzilgan № TS 743 - sonli qo'shimcha kelishuv shartnoma loyihasi amaldagi qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilganligi va qonunchilik texnikasi talablariga muvofiqligi qayt etilsin.

**Yangibozor tuman yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti**



D.Otabayev